Sahifani PDF tarzda yuklab olish (52 Kb) Versiyasi Sahifani doc tarzda yuklab olish (52 KB)

# «Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to`g`risida»gi Nizomni tasdiqlash haqida

«Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi va Qorakalpog`iston Respublikasi Qonunlariga muvofiq hamda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 may kungi 341-sonli «Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to`g`risidagi Namunaviy nizomni tasdiqlash haqida»gi Qarori ijrosini ta`minlash maqsadida, Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi **qaror qiladi:**

1. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 may kungi 341-sonli «Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to`g`risidagi Namunaviy nizomni tasdiqlash haqida»gi Qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. «Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to`g`risida»gi Nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Vazirliklar va idoralar, shahar va tumanlar hokimliklari bir oy muddatda:

ushbu qaror bilan tasdiqlangan Nizom asosida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to`g`risidagi nizomlarni ishlab chiqsinlar va tasdiqlasinlar;

o`zlarining normativ-huquqiy hujjatlarini ushbu qarorga muvofiqlashtirsinlar.

4. Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2-ilovaga muvofiq ba`zi qarorlari o`z kuchini yo`qotgan deb hisoblansin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o`rinbosarlari zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi** **Q.Sariev**

*Ko'rib chiqildi:*

Izlash

- Vazirlar Kengashi
- Statistik va tahliliy ma'lumotlar
- Vazirliklar va idoralar
- Shahar va tuman hokimliklari
- Hujjatlar
- Respublika mehmonlariga
- Elektron hukumat
- Interaktiv davlat xizmatlar